

## XO'JANAZAR HUVAYDO IJODIY MEROSI

*Qo'qon Unversiteti Andijon filiali*

*Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti*

*Filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili yo'nalish*

*Asilbekova Sevinch Sanjarbek qizi*

*Email: [sevinchasilbekova98@gmail.com](mailto:sevinchasilbekova98@gmail.com)*

*Tel: +998 95 101 26 16*

**Annotatsiya:** Maqolada XVIII asr o'zbek mumtoz adaiyotining yirik vakili Xo'janazar Huvaydo ijodining o'ziga xos xususiyatlari uning poetik dunyoqarashi hamda ishq lirikasidagi badiiy-falsafiy mazmunlar keng tahlil qilinadi. Shoirning ishqiy g'azali asosida undagi majoziy va ilohiy ishq uyg'unligi, tasavvufiy ramzlar, oshiqning ruhiy kechinmalari, badiiy-tasviriy vositalar, obrazlar tizimi hamda Huvaydoning mumtoz g'azal san'ati an'analari bilan aloqasi yoritilgan. Maqolada shoirning xalqona tili, tasavvufiy dunyoqarashi, ma'naviy kamolat haqidagi qarashlari va g'azalning semantik qatlamlari ilmiy-nazariy asosida sharhlanadi. Tadqiqot Huvaydoning o'zbek adabiyotdagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

**Kalit so'zlar:** Xo'janazar Huvaydo, mumtoz adabiyot, g'azal, ishq lirikasi, tasavvuf, ramziy obrazlar, parvona, sham, may, majoziy ishq, ilohiy ishq.

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida XVIII asr alohida bosqich sifatida gavdalanadi. Bu davrning ijodkorlari xalq og'zaki ijodi an'analari, tasavvuf falsafasi va mumtoz poetika uyg'unligi yangi badiiy darajaga ko'targan adabiy muhit vakillaridir. Shular qatorida Xo'janazar Huvaydo alohida e'tirofga sazovor shoir sanaladi. Uning she'riy merosi o'z davrida ham, o'zbek lirikasining yuksak namunalaridan biri sifatida baholanadi. Huvaydoning ijodiy konsepsiyasida ishq markaziy o'rinda turadi. Shoir nafaqat majoziy, ya'ni dunyoviy sevgini, balki haqiqiy, ilohiy ishqni ham yuksak falsafiy darajada talqin qiladi. Uning g'azallari tasavvufiy ruh, badiiy noziklik va ruhiy kechinmalar uyg'unligida shakllangan bo'lib, ramziy obrazlar orqali insonning ichki olami ifodalanadi.

**Xo'janazar Huvaydo ijodida ishq falsafasi** Huvaydo she'riyati Sharq tasavvufiy tafakkuri bilan uzviy bog'liq. Uning nazaridan ishq insonni o'zini tanish, ruhiy poklanish, haqiqatga yetaklovchi kuchdir, shoir uchun ishq:

bir tomondan – oshiqlik, hijron, rashk, visol istagi kabi insonga xos tuyg'u ;

ikkinchi tomondan – ilohiy nur, qalbni poklovchi va xalqa eltuvchi ma'naviy vositadir;

Shuning uchun uning g'azallarida “sham”, “parvona”, “may”, “devona”, “ostona” kabi timsollar tasavvufiy qatlamda chuqur ma'no kasb etadi. Oshiqlik shoirning nazarida o'zini yo'qotish emas, balki o'zini topish yo'li. umum

**G'azalning umumiy mazmuni va ruhiy yo'nalishi** mazkur g'azalning asosiy kayfiyati oshiqning qalb iztiroblari, ma'shuqqa nisbatan umid, rashk va hijronning ichki og'rig'i bilan to'yingan. Har bir bayt oshiqning ma'shuqqa murojaati, uning ruhi bilan kachayotgan ichki kurashning ifodasidir.

G'azalda shoir quyidagi g'oyalarni ilgari suradi:

ma'shuqning mehr-muhabbati oshiq uchun najot;

rashk, hijron, sadoqat oshiqlikning o'ziga xos nishonasi;

ishq yo'lida har qanday mashaqqat va baxtsizlikka sabr qilish – oshiqning vazifasi;

ilohiy go'zallik oldida oshiqlik – sajdaga arzigulik holat;

### **Baytma-bayt badiiy tahlil**

#### 1-bayt

Shoir ma'shuqqa “rahm aylasang-chi” deya murojaat qiladi. U o'zini “devona”, ishq yo'lida aqlini yo'qotgan inson sifatida tasvirlab, oshiqlikni inson uchun tabiiy holat emas, balki ulug' bir hol, hatto afsona darajasidagi maqom deb biladi. Bu baytning asosiy mazmuni – ma'shuqning mehriga bo'lgan ehtiyoj.

#### 2-bayt

“Hamnishinim” so'zi oshiqning ma'shuq bilan yaqinlik darjasini bildiradi, ammo “aylab judolik qilding” degan jumla bu yaqinlikning yo'qligini, hijronning og'irligini ko'rsatadi. Oshiqlik shu darajada qaltis tuyg'u ekanki, hijron oshiqning “g'amxonaga” aylantiradi. Bu g'amxona tashqi emas, balki qalbiy holat.

#### 3-bayt

Oshiq rashkning kuchini “o't”ga qiyoslaydi. Rashk Sharq she'riyatida to'g'ri va tabiiy oshiqlik belgisi. Ma'shuqning yuzini begonalarga ko'rsatishi oshiqni ichdan kuydiradi. Bu baytda hissiyotning keskinligi tasviriy vositalar orqali nihoyatda kuchaytirilgan.

#### 4-bayt

Shoir ma'shuqni “but” deb ataydi. Tasavvufda but dunyoviy jozibaning ramzi bo'lsada, Huvaydo uchun bu timsol orqali ma'shuq ilohiy go'zallik manbai sifatida ko'rsatiladi. Oshiq uning huzuriga yetishish uchun butxonaga boradi – bu ruhiy izlanishning ramziy ko'rinishidir.

#### 5-bayt

Ma'shuqning labi “mmaygun”, ya'ni mayga o'xshagan. Bitta bo'sa ham mastlarni hushidan ketkazadigon darajada ta'sirli. Bu oshiqning ma'shuqqa bo'lgan cheksiz ehtiyoji, zavq va hayajonining timsoli.

#### 6-bayt

Oshiqning ostonaga bosh urishi kamtarlik, sadoqat, taslim bo'lishning timsoli. U ma'shuqning husnini har dam tilaydi, uning huzuridan bir lahza ham uzoqlashishni istamaydi. Bu hol tasavvufdagi "bandalik" maqomini eslatadi.

7-bayt

Sharq lirikasidagi eng kuchli obrazlardan biri "sham va parvona" an'anasi ayni baytda jonli tarzda ifodalangan. Ma'shuq nur, oshiq shu nur yo'lida o'zini yo'q qiladigon parvona. Bu tasvir ishning fidoyilik falsafasini ko'rsatadi.

8-bayt

Oshiqning vayron ko'ngli "ganj", ya'ni xazina sifatida talqin qilinadi. Ishq saroylarda emas, aynan shunday oddiy, sindirilgan, poklangan qalblarda yashaydi. Bu bayt – g'azalning tasavvufiy kulminatsiyasi.

### Huvaydo poetikasining keng qamrovli xususiyatlari

Tasavvufiy timsollar

Huvaydo tasvirga chuqur ma'nolar beradi, har bir obraz ikki qatlamli:

majoziy mazmun ( dunyoviy tuyg'ular)

ilohiy mazmun ( ruhiy kamolot yo'li )

Xalqona til va ohangdorlik

G'azal lisoniy sodda, xalq tili bilan yqain, musiqiy ohangdorlikka ega. Bu shoirni Navoiy keyingi xalqona ruhli shoirlardan biriga aylantiradi.

Kuchli poetik dramatism

G'azalda hijron, rashk, iltijo, sadoqat kabi kuchli dramatik kechinmalar yorqin ifodalangan.

Sharq poetikasiga xos obrazlar tizimi

Sham – ilohiy nur, haqiqat, go'zallik,

Parvona -fidoiy oshiq,

may - ruhiy mastlik, ilohiy zavq,

**Xulosa:** Xo'janazar Huvaydo o'zbek mumtoz adabiyotining o'ziga xos shoirlardan bo'lib, uning ishqiy g'azallari mazmuniy chuqurlik, badiiy go'zallik va tasavvufiy falsafa uyg'unligi bilan ajralib turadi. Tahlil qilingan g'azal shorning lirikasidagi eng nozik ruhiy holatlar, oshiqning ichki kechinmalari, visol va hijron iztiroblari nafis poetik obrazlar orqali ifodalanganini ko'rsatadi.

Huvaydo ishqni ulug'laydi, uni inson ruhining yuksalish manbai sifatida talqin qiladi. Uning g'azalidagi ramzlar sham, parvona, but, may tasavvufiy tafakkur bilan boyitilgan. Shoirning xalqona tili, ohangdor uslubi, obrzlar tizimi va ma'naviy mazmuni uning ijodini nafaqat o'zbek adabiyotining, balki Sharq lirikasi an'anasining muhim bo'lagiga aylantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Huvaydo, Xo'janazar Devon Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.
2. Mirzaev, M. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent; O'zbekiston, 1999.
3. Qayumov, A O'zbek klassik adabiyoti tarixi Toshkent Fan, 1985.
4. Hojiahmedov A. Tasavvuf va o'zbek adabiyoti Toshkent ; yozuvchi 1993.
5. Shamsiev M. O'zbek adabiyotining qisqa tarixi Toshkent fan, 1978.
6. Navoiy Alisher. Mezon ul-avzon Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1981,
7. Komilov N. tasavvuf. Toshkent yozuvchi. 1996.
8. Qodirov I. XVIII asr o'zbek she'riyati poetik xususiyatlari. – O'zbek tili va adabiyoti 2017.
9. Rustamov S. sharq lirikasida ramz va timsollar Toshkent Fan 1997.
10. Quronov M. Matyoqubov F. Rasulov R. Adabiyotshunoslik lug'ati Toshkent Akademnashr 2010.